



The problem of translation of speech words, national-cultural customs, mentality, phraseological units regarding dress

Irodakhon RAKHIMOVA¹

Andijan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2024
Received in revised form
10 June 2024
Accepted 25 July 2024
Available online
15 July 2024

Keywords:

customs,
rules of conduct,
unique Uzbek historical
features,
showing honor.

ABSTRACT

National and cultural traditions are the norms of behavior and skills accepted by the majority, which are reflected in the social and cultural life of the nation, playing a key role in its formation and development. These traditions are formed both at an individual level and in the entire country. For example, in Uzbek culture, it is customary for small children to greet adults, get up early in the morning, sweep the yards, and show special respect to guests. Before holidays, children also receive information about the health of sick, poor, and needy families and the elderly.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss4-pp323-328>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Nutqiy kalimalarning milliy-madaniy urf-odatlarini, mentalitetni, kiyim-kechakka doir frazeologik birliklarni tarjima masalasi

ANNOTATSIYA

Kalit soʻzlar:

urf-odatlar,
xulq-atvor qoidalari,
oʻziga xos oʻzbekona tarixiy
xususiyatlar,
izzat-ikrom koʻrsatish.

Milliy-madaniy urf-odatlar deganda millatning turmush-tarziiga singib ketgan, uning shakllanishi va rivojiga xizmat qiladigan ijtimoiy madaniy hayotida oʻz aksini topgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, koʻpchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va koʻnikmalar koʻrinishiga nisbatan aytiladi. Milliy-madaniy urf-odatlar odatda alohida olingan shaxs va millat doirasida shakllanib boradi. Masalan, oʻzbek millatida yosh bolalarni kattalarga salom berishi, tong saharda turib, uy hovlilarni supurib-sidirib, mehmonlarga alohida izzat-ikrom koʻrsatish, bayram arafasida betob va kam taʼminlanganlar, yordamga muhtojlar oilalar, keksalar holidan xabar olish shular jumlasidandir.

¹ Teacher, Andijan State Institute of Foreign Languages, Andijan, Uzbekistan. E-mail: rakhimova 1974@gmail.com

Проблема перевода речевых оборотов, национально-культурных обычаев, менталитета, фразеологизмов, связанных с одеждой

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

обычай,
правила поведения,
уникальные исторические
особенности Узбекистана,
проявление чести.

Национально-культурные традиции представляют собой принятые большинством нормы поведения и навыки, которые отражаются в социальной и культурной жизни нации, играя ключевую роль в её становлении и развитии. Эти традиции формируются как на уровне отдельного человека, так и всего народа. Например, в узбекской культуре принято, чтобы маленькие дети приветствовали взрослых, вставали рано утром, подметали дворы и проявляли особое уважение к гостям. Перед праздниками дети также получают информацию о состоянии здоровья больных, бедных и нуждающихся семей, а также пожилых людей.

Milliy-madaniy urf-odatlar deganda millatning turmush-tarziga singib ketgan, uning shakllanishi va rivojiga xizmat qiladigan ijtimoiy madaniy hayotida o'z aksini topgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va ko'nikmalar ko'rinishiga nisbatan aytiladi. Milliy-madaniy urf-odatlar haqida gap ketar ekan, bizning xalqimizda o'ziga xos o'zbekona tarixiy xususiyatlarida haqida gapirmay bo'lmaydi. Milliy-madaniy urf-odatlar odatda alohida olingan shaxs va millat doirasida shakllanib boradi. Masalan, o'zbek millatida yosh bolalarni kattalarga salom berishi, tong saharda turib, uy hovlilarni supurib-sidirib, mehmonlarga alohida izzat-ikrom ko'rsatish, bayram arafasida betob va kam ta'minlanganlar, yordamga muhtojlar oilalar, keksalar holidan xabar olish shular jumlasidandir. Mustabid tuzum davrida ko'plab urf-odatlarimiz eskilik sarqiti deb poymol qilindi, bu esa yoshlar ta'lim-tarbiyasiga milliy o'zlikni asrab-avaylashga va shu orqali o'zbek millatining ma'naviy rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Milliy urf-odatlar millat va elatning tarixi, an'analari, xalq og'zaki ijodi, san'at va adabiyoti, turmush tarzi va boshqa omillar ta'sirida shakllanib, takomillashib boradi.

Milliy urf-odatlar millatning, elat va etnik guruhlarining o'ziga xos qiyofasini belgilovchi xususiyat. Masalan, millatimizga xos bo'lgan qudachilik urf-odatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, sho'rolar davrida "**Beshik to'yi**" eskilik sarqiti, deb tahqirlangan edi. Vaholanki, beshik u bilan bog'liq urf-odatlar milliy madaniyatimizning tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Milliy urf-odatlar va an'analar har bir millatda o'ziga xos tizimni tashkil etadi, xalq tomonidan turmush tarzining zaruriy sharti deb qabul qilinadi. Milliy urf-odatlarga befarqlik kishini, millatni o'zligidan uzoqlashtiradi. Milliy urf-odatlarda vatanga, millatga bo'lgan hurmat-e'tibor va sadoqat tajassum topadi. Mamlakatimizda istiqloq tufayli 130 dan ortiq millat va elat vakillari urf-odat va an'alarini asrab avaylash, takomillashtirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Bu hol millatlararo munosabatlarning rivoji, o'zaro do'stlik va totuvlik rishtalarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Tilshunoslikda milliy-madaniy urf-odatlarni o'rganish ta'limoti etnolingvistikada o'rganiladi. **Etnolingvistika [8.1]** (etno... va lingvistik) tilshunoslikning til va til egasi bo'lgan xalq orasidagi bog'liqdik hamda munosabatlarni, til rivoji vazifaviy

xususiyatlariga lisoniy, etnik omillarning birgalikdagi ta'sirini o'rganuvchi sohasi hisoblanadi. Til bilan etnik xususiyatlarning o'zaro munosabati, bir-biriga ta'siri ikki tomonlama bo'ladi: **etnik omillar** (etnosning urfodatlari, milliy an'analari, falsafiy, diniy qarashlari va boshqalar)ning til rivojiga ta'siri va, aksincha, til vazifaviy imkoniyatlarining etnos va etnik xususiyatlarning shakllanishiga ijobiy ta'siri hisoblanadi.

Etnolingvistika til va uning rivojiga turli etnik guruhlarning qanchalik hissa qo'shganini, bu jarayonda etnoslar orasidagi yaqinlik, mushtaraklik yoki ularning bir-biridan ajralish, uzoqlashish xususiyatlarini tadqiq qiladi. Tilshunoslikning etnik onomastika, areal lingvistika, lingvistik geografiya, dialektologiya, til tarixi, sotsiolingvistika, xaritashunoslik sohalari Etnolingvistikani erishgan ilmiy natijalardan foydalanadi. Etnolingvistika ayniqsa, yozuvga ega bo'lmagan xalqlarning etnografiyasini o'rganishda, ularning tillaridagi etnik xususiyatlar bilan bog'liq lisoniy materiallarni to'plash va tadqiq qilishda qo'l keladi [8.3].

Turkiy tilshunoslikda etnografizmlar tadqiqiga M. I [8.6]. Byatushgova, A.K. Apoyev [5.6] kabilarning ilmiy izlanishlari ham katta hissa bo'lib qo'shildi. Etnografizmlarni monografik planda tadqiq etish lingvistik birliklarning o'zaro munosabatini ochishga, ularni maydon sifatida o'rganishga qulay imkon yaratadi. O'zbek tilidagi rasm-rusumlar bilan bog'liq tushunchalarning nomlarini sistemaviy asosda maxsus o'rganish ehtiyojidan kelib chiqib, turli urf-odatlar, marosimlar bilan bog'liq tushunchalarni muayyan mikromaydonga birlashtirish va ularni semik jihatdan tahlil etish o'ziga xos ahamiyatga ega. Etnografizmlarning ichki tuzulishi va tuzilish birliklari o'rtasidagi xilma-xil munosabatlarni ochish ham hozirgi o'zbek tilshunosligi uchun katta ahamiyatga ega.

U. Xo'janazarovanning [5.3] Badiiy matnda etnomadaniyatni ifodalovchi kiyim-kechak nomlari qo'llanilishi maqolasida frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatga egaligini hisobga olib, ularni etnofrazemalar deb atashga asos bor, chunki ularda madaniyatning biror etnosiga tegishli lisoniy birliklari mavjud. Etnofrazema asoslanmagan barqaror birikma, iboralar bo'lib, xalq ma'naviy madaniyati sohalariga turlicha etimologik jihatdan bog'liq hodisa: urf-odat, an'ana, udumlar, rivoyat, belgi-alomat, e'tiqod, jonsiz narsa-buyum haqidagi farazlar va boshqalardir deb ma'lumotlar berib o'tgan olim. Bizningcha ham, **etnofrazemalar** biror millatning madaniyatining biror etnosiga tegishli lisoniy birliklarini, masalan iboralar yoki frazeologik birliklar va boshqalarni o'rganishga imkoniyat yaratadi.

T.I. Skorobogatova[6.114]ning tahliliga ko'ra, etnofrazeologiyaning asosi bo'lmish etnonimlar – "O'zaro munosabatda bo'lgan xalqlar o'rtasidagi lingvokulturologik fikr yuritish majmuidir". Tilshunos nazariyasiga ko'ra, etnonim leksik birlik sifatida qabul qilinishidan avval etnik tushuncha bo'lib shakllanadi va Olamning lisoniy tasvirida etnik belgilarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Har xalqning o'ziga xos kiyim-kechak nomlari va realiyalari ham milliy frazeologizmlarni hosil qilishda asos vazifasini o'taydi. Albatta, olamning lisoniy manzarasi orqali etnik belgilarni ifodalash yoki tilda ularni qo'llash va ular orqali frazeologizmlarni hosil qilish tilshunoslik sohasida hozirgi kunda dolzarb masalalardan birib bo'lib turibdi.

Ozbek tilining izohli lug'atida **kiyim-kechak [4.335]** leksemasiga doir berilgan izohlardan keltirib o'tsak: ayn. kiyim bosh. Arava-arava kiyim-kechak keltirilib, hamma bolalarga bir sidra yangi ichki va ustki kiyim bosh berildi. P. Tursun, O'qituvchi.

Kiyim-bosh [4.365] leksemasiga ham izohlar berib o'tsak: kiyiladigan narsalar; kiyim usti-bosh; kiyim-kechak. Bular [yigitlar] bir shaharga tushib, ertasiga kiyim-bosh olishdi. A.Qahhor, Oltin yulduz.

Masalan, “to’nini teskari kiyib olmoq” – o’chakishgan holda qaysarlik qilmoq, “do’ppini osmonga otmoq” – juda xursand bo’lmoq, “do’ppi tor keldi”- ilojimkonsiz og’ir ahvolga tushmoq, “bir-ikki yaktakni ortiqroq yirtgan” – yoshi kattaroq, turmush tajribasi ko’proq, “chorig’ini sudramoq – zo’rg’a-zo’rg’a, amalqaqal qilib yashamoq, “paytavasiga qurt tushdi” xotirjamligi buzilib, bir yerda tinch tura olmaslik

Bir misol orqali etnofrazemaning milliy koloriti haqida tushuncha olishimiz mumkin: sharqda unashtirilgan qiz yangi turmush qurgan joyga maxsus milliy oyoq kiyimida, mahsida kirib borgan. Shuning uchun “mahsi kiyimoq” turmushga chiqmoq tushunchasiga teng qo’llanilgan. [3.6] Hozirgi kunda bu kabi kiyim-kechak leksemasi orqali hosil bo’lgan frazeologik birliklar ustidan tadqiq qilish tadqiqotchilar uchun katta imkoniyatlar yaratib turibdi, chunki kiyim-kechak leksemasini milliy korpusni hisobga olgan holda amalga oshirish tilshunoslikda yana bir katta yo’nalish ochilishiga sabab bo’lishi mumkin deb o’ylaymiz. Biz ham yuqoridagi tahlillardan kuch olgan holda o’zimizning milliy-madaniy asarlarimizdan kiyim-kechak leksemasiga doir frazeologik birliklarni tanlab, ularni konseptual tahlilini qilib chiqmoqchimiz. Biz millatimizning mashhur o’zbek yozuvchisi qalamiga mansub “Mehrobdan chayon” romanidagi kiyim-kechakka doir frazeologik birliklardan foydalanmoqchimiz.

A.Qodiriyning Mehrobdan chayon” romanining IV-faslining “Maxdumning ba’zi hislatlari” bo’limida kiyim-kechak leksemasiga doir **Ko’ylak-ishtonning aksar yetti-sakkiz joyidan yamog’i bo’ladir [1.14]** nutqiy kalimasini tahlilini qilsak: ushbu nutqiy kalmia metonimik frazeologik birlik bo’lib, **ko’ylak-ishtonning yamog’i**, “**yamoq**” degan nutqiy kalimaga almashtirilsa, “**yamoq**” kiyimning yirilgan joyini ta’mirlash uchun qo’yilgan materialni anglatadi va u “ko’p yamoq qo’yilgan, eskirgan, yirtiq-yoriq” denotativ ma’nosini anglatishi mumkin.

Ushbu nutqiy kalimaning umumiy ma’nosi **eskirgan, yamoq bilan yamalgan kiyimlarni** anglatadi. Bu o’zbek xalqining o’tmishdagi qashshoqlik va kamchiliklarni boshdan kechirganligini, ehtiyotkorlik bilan ishlatish va yirilgan narsalarni yamab, yana ham kiyish ma’nosini ifodalaydi. Keltirilgan ma’noga qo’shimcha ma’lumot sifatida o’zbek millatining sabrlililik va bardoshlilik bo’lganligini asarda **ko’ylak-ishtonning aksar yetti-sakkiz joyidan yamog’i bo’ladir** keltirilgan matn ma’nosidan be’malol anglash mumkin. Tariximiz o’tmishidan bilamizki, odamlar qiyinchiliklarga bardoshli bo’lishga va kamchiliklarga qaramay hayotni davom ettirishga harakat qilganlar. Yamoq bilan ta’mirlangan kiyimlar shu bardoshlilik va chidamlilikning ramzi sifatida ushbu yuqorida berilgan nutqiy kalimani misolida berilgan.

Yana ushbu nutqiy kalimani mehnatsevarlik va sarf-xarajatlarga ehtiyotkorlik ma’nosida ham ifodalanishini ham kuzatdik, chunki o’zbek halqi doimo mehnatsevar bo’lib, narsalarni ehtiyotkorlik bilan ishlatishga harakat qilishgan. **Yamoq qo’yish** esa kiyimlarni uzoq vaqt ishlatish imkonini beradi va sarf-xarajatlarni kamaytiradi.

O’zbek halqi a’zal-a’zaldan narsa va buyumlarni qadrlab ishlatishi madaniyati kuchli bo’lganligini bilamiz. **Yamoq qo’yish** nutqiy kalimasi esa milliylik nuqatai nazaridan yamoq bilan ta’mirlangan kiyimlarga nisbatan ehtirom va qadrlashni aks ettiradi. Odamlar o’zlarining mehnatlari va g’amxo’rliklari bilan yaratilgan narsalarni qadrlashgan.

Yamoq qo’yish leksemasini hayotning og’irliklariga nisbatan munosabati haqida ozroq to’htalib o’tsak: mazkur nutqiy kalima hayotdagi qiyinchiliklarni va kamchiliklarni qabul qilish va ularga qarshi kurashishga undaydi. **“Ko’ylak-ishtonning aksar yetti-sakkiz**

joyidan yamog'i bo'ladi" degan nutqiy kalimasi, qiyinchiliklarga qaramay umiddilarni yo'qotmaslikka chaqiradi.

Shunday qilib, "ko'ylak-ishtonning aksar yetti-sakkiz joyidan yamog'i bo'ladi" iborasi o'zbek xalqining turmush tarzini, qiyinchiliklarga nisbatan munosabatini, mehnatsevarlik va chidamlilik ruhini aks ettiradi. Bu ibora o'zbek milliy madaniyatining boyligi va turli xil milliy-madaniy jihatlarni birlashtiradi.

Ingliz tilida ham "**Ko'ylak-ishtonning aksar yetti-sakkiz joyidan yamog'i bo'ladi"** nutqiy kalimasiga o'xshash ibora borligini kuzatdik. Odatda bu kabi ibora ingliz tilida "**a stitch in time saves nine**" degan iboraga semantik jihatdan mos tushushi mumkin bo'lgan nutqiy kalima bo'lib, o'z vaqtida qilingan **bir tikuv, to'qqizta tikuvni tejaydi**" ma'nosini anglatadi. Bu nutqiy kalimani ham milliy-madaniy tahlilini qilib chiqsak: Ingliz halqi ham a'zaldan tejamkor millat hisoblanib va ular o'zlarining amaliy va tejamkor xususiyatlari bilan mashhur. Mazkur nutqiy kalima muammoni o'z vaqtida hal qilishning muhimligini anglatadi, bunga sabab ushbu muammo keyinchalik hal qilish ko'proq vaqt va kuch sarflashni talab qilishini bildiradi.

Inglizlar madaniyati ham huddi o'zbek madaniyatidek, ishchanlik va mehnatsevarlikka chorlaydi. Ushbu nutqiy kalima "o'z vaqtida" qilingan ish muhim ekanligini va ishni kechiktirmaslikka chaqiradi. Yana ingliz halqining yahshi odatlaridan biri muammolarni o'z vaqtida hal qilishga, hamda ularning oldini olishga harakat qilishadi.

Demak, Ingliz tilida berilgan "**A stitch in time saves nine- [7.3]**" said to mean that it is better to act or deal with problems immediately because if you wait and deal with them later, things will get worse and the problems will take longer to deal with.

Tarjimasi: biror karhol ish bo'lsa, uni darhol hal qilish yaxshi ekanligini, aks holda u ish keyinroqqa qoldirilsa, vaziyat yomon tus olishi va o'sha muammolarni hal qilish uchun esa ko'proq vaqt ketib qolishini bildiradi.

a stitch in time saves nine nutqiy kalimasining pragmatik ma'nosida "**vaqt qimmat**" degan go'ya yotadi. Vaqtning qadrliligi huddi O'zbek halqi madaniyatidek, ingliz madaniyatida ham muhim ahamiyatga egadir. Bu nutqiy kalmia vaqtdan oqilona foydalanish va kechiktirishdan qochishga undaydi.

a stitch in time saves nine nutqiy kalimasining "Aqlli ish – yarim ish" ma'nosi "aql bilan ish qilish" va ishni o'z vaqtida bajarishning muhimligini ta'kidlaydi.

Tahlillarimizdan kelib shuni hulosa qilish mumkinki, "**A stitch in time saves nine**" iborasi ingliz madaniyatida keng tarqalgan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan ibora bo'lib, ingliz xalqining amaliylik, tejamkorlik, ishchanlik, oldini olish va vaqtni qadrlash qadriyatlarini aks ettiradi.

Keyingi **asliy matnni** ham berib o'tsak: **Yetti qishdan beri guppi – chopon yangilagani ma'lum emas**, faqat qish kelib ketkan sayin alak guppining yengi o'zga- ribkina turadir va astari yil sayin yangidan yangi yamoqlar bilan boyiydir, shu guppi butun umrida birgina martaba va shunda ham maxdumdan beruxsat, ammo Nigor oyimning zo'ri bilan tog'ora- g'a tushib cho'mildi [1.14].

Ingliz tilida IV bobida **Some features of mahdum** nomli bobidan yuqorida berilgan asl matnning muqobilini olib tahlildan o'tkazsak: He has **got patches on his shirts and pants all the time**. And he never changes or buys a new **oriental robe** for the past seven years. And it gets new patches every year and it was getting older and older from year to year. And this robe only once was washed by Nigorkhanum's naggings during these seven years [2.14].

got patches on his shirts and pants all the time- This sentence describes someone who frequently wears clothes with patches. **Tarjimasi:** (Bu nutqiy kalima tez-tez yamoqli kiyim kiyadigan odamni tasvirlaydi):

He's a resourceful person He likely values function over fashion, and patching up his clothes is a way to extend their lifespan and save money. He might be handy and skilled at mending, or he might just be frugal and unwilling to waste good clothing. **Tarjimasi:** U zukko odam, ehtimol u zamonaviylikdan ko'ra qat'iylikni qadrlaydi va kiyimlarini yamoqlab kiyish orqali pul tejash maqsadida to'nini yamoqlab yuruhini bildiradi. U o'ziga to'q kishi mumkin bo'lishi mumkin yoki u tejamkor bo'lganligi sababli yaxshi kiyimni isrof qilishni xohlamasligi mumkin)

He has a physically demanding job. The patches could be a result of wear and tear from work, suggesting a lifestyle where clothes are likely to get torn or stained. He could be a carpenter, mechanic, farmer, or someone who works with their hands. **Tarjimasi:** Ehtimol uning kasbi jismonan mashaqqatli ishi bo'lishi mumkin. U duradgor, mexanik, fermer yoki o'z qo'llari bilan ishlaydigan kishi bo'lishi mumkin.

He's accident-prone. Perhaps he's always tripping over things, getting into scrapes, or spilling things on his clothes. The patches represent the evidence of these mishaps. **Tarjimasi:** U baxtsiz hodisalarga uchrab turadigan inson bo'lishi mumkin. Ehtimol, uning ishi narsalarni ag'darib tashlash, tirnash yoki kiyimiga biror narsalarni to'kib tashlaydigan ish bo'lishi mumkindir. Yamoqlar bu baxtsiz hodisalardan tushgan bo'lishi mumkin.

He might not have a lot of money. The patches could indicate that he can't afford to buy new clothes and has to make do with what he has. **Tarjimasi:** Uning ko'p puli bo'lmasligi mumkin. Yamoqlar uning yangi kiyim sotib olishga qurbi yo'qligini va o'zida bor ustibosh bilan kiyinish kerakligini ifodalayotgan bo'lishi mumkin.

O'zbek tilida berilgan matning tarjimasini tarjimon mohirona o'gira olgan, o'zbek tili va ingliz tilining izohli lug'atlarida berilgan izohlardan shuni tushunish mumkinki, har bir jumla, har bir izoh o'z o'rnida qo'llanilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qodiriy. «Mehrobdan chayon» / roman / «Abadiy barhayot asarlar»turkumi / Nashrga tayyorlovchi: Xondamir Qodiriy.- T.: «Navro'z», 2019. – 14 b.
2. Qodiriy, Abdulla The Scorpion from the Altar: Novel. Translators: I.M. Tukhtasinov, U.R. Yoldoshev, A.A. Khamidov. – T.: «MASHHUR-PRESS», 2019. – 14 p.
3. To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik, T.: Yangi asr avlodi, 2010 y., -B. 6-7
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. K-harfi.-B.365
5. Надим, Хумаюн Мухаммед. Etnolingvistika va etnografik leksika haqida / Хумаюн Мухаммед Надим. — Текст: непосредственный // Молодой
6. Скоробогатова Т. И., Шкуратова Т. А. Этническая картина мира и этноидиоматика (на материале английского и французского языков) // Вестник ПСТГУ. III Филология. 2007. Вып. 3 (9). С. 97–114.
7. <https://dictionary.cambridge.org>
8. <https://uz.wikipedia.org>